

2026-yil 26-may

“O‘zkimyosanoat” AJda ISO 37001:2016 xalqaro sertifikatini yana tasdiqlandi



Mamlakatimizda davlat siyosatida shaffoflik, xolislik va mas'uliyatli boshqaruvni ta'minlash maqsadida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida xalqaro standartlarga muvofiq tizimlar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. **Bu esa korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqmoqda.**



“O‘zkimyosanoat” AJda ham korrupsiyaga qarshi samarali boshqaruv tizimi shakllantirilgan bo‘lib, Jamiyat 2025-yilda “CERT International” xalqaro akademiyasi tomonidan muvaffaqiyatli auditdan o‘tib, korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi nufuzli xalqaro standart — **ISO 37001:2016** sertifikatiga ega bo‘lgan edi.



Mazkur sertifikat 3 yil muddatga berilib, har yili kuzatuv auditi o'tkaziladi. Joriy yilning 25-26-may kunlari "CERT International" MCHJ auditorlari tomonidan navbatdagi kuzatuv auditi tashkil etildi. Ochiq va konstruktiv ruhda o'tgan audit yakunlariga ko'ra, "O'zkimyosanoat" AJ ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga muvofiqligi yana bir bor tasdiqlandi.



Ushbu natija Jamiyatda shaffof va samarali boshqaruv tizimi izchil yo'lga qo'yilganini namoyon etib, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, xalqaro hamkorlar ishonchini mustahkamlash hamda global bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qiladi.



source:

"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkiyosanoat-ajda-iso-37001-2016-xalqaro-sertifikati-yana->